

**MALAKAVIY O'QUV AMALIYOTI JARAYONIDA BO'LAJAK  
TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINING INNOVATSION RIVOJLANTIRISH  
STRATEGIYALARINING AHAMIYATI.**

**Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna**

*Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism metodikasi" kafedrasini o'qituvchisi,  
[ramozonovabahoroy@gmail.com](mailto:ramozonovabahoroy@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada pedagogika oliy ta'lism muassasalarida malakaviy o'quv amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlanirish metodikasining innovatsion rivojlanish istiqbollari, malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida mashg'ulotlarda, bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlanirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olishining turli usullari, strategiyalari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, kasbiy kompetentlik innovatsion vositalar, kognitiv, operatsion, texnologik, motivatsion pedagogik yondoshuvlar.

**Аннотация:** В данной статье даны рекомендации по инновационным перспективам развития методики развития профессиональных компетенций будущих воспитателей в педагогических высших учебных заведениях, по различным методам, стратегиям применения современных технологий в обучении, развитии профессиональной компетенции будущих воспитателей в процессе профессиональной практики.

**Ключевые слова:** Компетентность, профессиональная компетентность инновационные инструменты, познавательные, операционные, технологические, мотивационные педагогические подходы.

**Abstract:** This article provides recommendations on the prospects for the innovative development of the methodology for the development of professional competencies of future educators in the process of qualification training practice in pedagogical higher educational institutions, various methods, strategies for the application of modern technologies in training in the process of qualification training practice, in the development of professional competence of future educators.

**Key words:** Competence, professional competence innovative tools, cognitive, operational, technological, motivational pedagogical approaches.

Jahon ta'lism tizimida bugungi kunga kelib malakaviy o'quv amaliyotida jarayonida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlanirish dolzarb muammo sifatida ustivorlik qilmoqda. Mazkur tadqiqotning asosini bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlanirishda insonparvarlik, hamkorlik, shaxsga yo'naltirilganlik, uzliksizlik, qadriyatlarga asoslanganlik tashkil etadi.

Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish faoliyatining ilmiy yo‘nalishlarini belgilash va uni amalga oshirish uchun bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentli qilib tayyorlash bizga tadqiqotning pedagogic shart-sharoitlarini o‘rganishga va tahlil qilishga bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasining mazmun mohiyatini aniqlashga imkon berdi.

Bugungi kunda bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayoni zamonaviy ta’lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Malakaviy o‘quv amaliyotida innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, bo‘lajak tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-289-son qaroriga muvofiq, 2022/2023 o‘quv yildan boshlab pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 — 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiyo‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishi joriy etildi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy sharoitda oliy pedagogik ta’limning muhim vazifasi bo‘lajak tarbiyachining o‘zgaruvchan sharoitlarda turli xil o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv yurtlari asosida ishlashga tayyorligini ta’minlashga qaratilgan tarbiyachilarni tayyorlash uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni kuchaytirishdir.

Kasbiy kompetentlikning zamonaviy ta’limda rivojlanishi, ayniqsa, malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish va qo‘llash jarayonida bo‘lajak tarbiyachilar ilg‘or metodik yo‘nalishlar va strategiyalarni ishlab chiqishiga keng imkoniyat yaratadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘lajak tarbiyachilarga nafaqat o‘z kasbiy malakalarini takomillashtirish, balki tarbiyalanuvchilarning ilmiy-texnik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vositalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida pedagogik yondashuvlarning sifat jihatidan o‘zgarishiga, ta’lim jarayonini yanada interaktiv, samarali va bolalar uchun qiziqarli shaklda tashkil etishga zamin yaratadi. Bu esa tarbiyalanuvchilarni ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni faol va ijodiy ta’lim muhitiga jalb etish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini va mustaqil ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kasbiy kompetentlik - bu shaxsning o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan kompleks tushuncha hisoblanadi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, ta’lim va kasbiy rivojlanish sohalarida innovatsion metodlarni joriy qilish, bilim olish jarayonlarini soddalashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini

yaratadi. Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida raqamli texnologiyalarning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi roli quyidagi jihatlarda ko‘rinadi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar innovatsion va samarali yondashuvlarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida talaba o‘zining bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, raqamli platformalar kasbiy o‘sish va rivojlanishga doir yangi imkoniyatlarni yaratadi, bu esa jamiyatdagi raqamli yuksalish bilan hamohang ravishda ta’lim va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar va metodologik innovatsiyalar muhim ro‘l o‘ynaydi. Bunday innovatsiyalar, ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda va bo‘lajak tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda yordam beradi. Ba’zi raqamli texnologiyadan foydalanishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Gamifikatsiya: O‘quv jarayonini yanada qiziqarli qilish uchun o‘yin elementlaridan foydalanish. Bu metod bo‘lajak tarbiyachilarining motivatsiyasini oshiradi va yanada faol ishtirop etish imkonini yaratadi. Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida raqamli vositalardan o‘quv jarayonida o‘yinlar va interaktiv o‘quv materiallarini yaratish orqali bo‘lajak tarbiyachilarining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Bo‘lajak tarbiyachilarini tayyorlash jarayonida ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biridir. Malakaviy o‘quv amaliyoti jarayonida pedagogik faoliyatni chuqur anglash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va pedagogik mahoratni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayonga gamifikatsiya elementlarini joriy etish bo‘lajak tarbiyachilarining faolligini oshirishda va kasbiy rivojlanishiga rag‘bat uyg‘otishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Gamifikatsiya (*inglizcha gamification*) — bu o‘yinga xos bo‘lgan elementlar va mexanizmlarni o‘yin bo‘limgan sohalarga qo‘llash orqali foydalanuvchilarining ishtirokini, motivatsiyasini va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiluvchi metod hisoblanadi.<sup>12</sup> Shunday qilib, gamifikatsiya asosida tashkil etilgan amaliyot jarayoni bo‘lajak tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish, ularni faol va ijodiy faoliyatga jalb qilish, shuningdek, motivatsiyasini yuqori darajada saqlab turish imkonini beradi.

Ko‘nikmalarni mustahkamlash va rivojlantirish malakaviy o‘quv amaliyotida simulyatsiya tarbiyalanuvchilarga nafaqat pedagogik nazariyalarni, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. Talabalar real pedagogik vaziyatlarni taqlid qilish orqali, masalan, o‘qish va o‘rgatish metodlarini sinab ko‘rishlari mumkin. Bu ko‘nikmalar, o‘z navbatida, ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga

<sup>12</sup> Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). *From game design elements to gamefulness: Defining “gamification”*. In Proceedings of the 15th international academic MindTrek conference: Envisioning future media environments (pp. 9–15). ACM. <https://doi.org/10.1145/2181037.2181040>

turtki beradi. Talabalar turli didaktik texnikalarni o‘zlashtirish, o‘qitish va o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xatoliklardan o‘rganish simulyatsiyalar davomida talabalar xatoliklar qilishlari mumkin, lekin bu xatoliklar ularga o‘z yondoshuvlarini tahlil qilish va to‘g‘ri yo‘lni tanlash imkonini beradi. Bu jarayon talabalarni refleksiya qilishga undaydi, ya’ni ular o‘z amaliyotlarini baholash va yanada samarali tarzda amalga oshirishni o‘rganadilar. Simulyatsiya orqali olingan tajribalar talabalarga o‘z xatoliklarini tuzatish va pedagogik usullari orqali samarali o‘qituvchilik qilishni o‘rganishga yordam beradi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 8 yanvardagi 11-sod “Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining haq to‘lanadigan malaka amaliyotini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”dagi 11-sonli qarorida
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 iyulda “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-200-sod qarori
3. Sadriddinovna, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. Thematics Journal of Education, 7(4).
4. Ramozanova, B. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE EDUCATORS DURING THE PROCESS OF QUALIFIED EDUCATIONAL PRACTICE. Science and innovation, 2(B4), 228-230.
5. Рамозонова, Б. С., & Абдумуминова, Д. (2023, March). ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ. In E Global Congress (No. 3, pp. 1-5).
6. Sadriddinovna, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. Thematics Journal of Education, 7(4).
7. Ramozanova, B. (2025). Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnalı*, 3(3).
8. Akmalovna, M. D., Sadriddinovna, B. R., & Qizi, B. E. Z. (2023). MAKTABGACHA TA’LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASH USULLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 13), 538-540.